

## Effective Methods for Implementing Collaborative Pedagogy in Education

Olimova Dono Shakirovna<sup>1</sup>, Qodirberganov Nodirbek<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup> Urgench State University, Uzbekistan

### Article Info

Received: 15 March 2026

Revised: 27 March 2026

Accepted: 5 April 2026

Online Version: 12 April 2026

### Corresponding Author:

Olimova Dono Shakirovna,  
PhD in Pedagogical Sciences,  
Associate Professor, Urgench  
State University of Medicine,  
Uzbekistan.

Email: [olimovadono@gmail.com](mailto:olimovadono@gmail.com)

**Abstract.** This article examines effective methods of using cooperative pedagogy in the educational process. It analyzes the basic principles of cooperative learning, the importance of teacher-student interaction, and the role of small group work in developing motivation for learning and competencies. It also examines the use of interactive methods in the educational process, as well as methods aimed at developing independent thinking, creativity, and social skills in students. This study was conducted based on a qualitative descriptive approach and focused on analyzing the effectiveness of using collaborative pedagogy in the educational process. The study's results demonstrate that the use of cooperative pedagogy improves learning effectiveness, increases student engagement, and enhances learning.

**Keywords:** Cooperative pedagogy, interactive methods, small groups, educational process, student engagement, competencies, pedagogical technologies, communication, learning effectiveness.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasidan foydalanishning samarali usullari yoritiladi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy tamoyillari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqotning ahamiyati, kichik guruhlarda ishlashning o'quv motivatsiyasi va kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot sifat (kvalitativ) tavsifiy yondashuv asosida olib borildi va ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari hamkorlik pedagogikasini qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishi, o'quvchilar faolligini kuchaytirishi va o'zlashtirish darajasini yaxshilashini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Hamkorlik pedagogikasi, interfaol metodlar, kichik guruhlar, o'quv jarayoni, o'quvchi faolligi, kompetensiyalar, pedagogik texnologiya, muloqot, ta'lim samaradorligi.



© 2026 by the author(s)

This article is an open-access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International

(CC BY SA) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0/>).

---

Journal Homepage	<a href="https://ejournal.aripendis.com/edulogia">https://ejournal.aripendis.com/edulogia</a>
How to cite:	Shakirovna, O. D., & Nodirbek, Q. (2026). Effective Methods for Implementing Collaborative Pedagogy in Education. <i>Edulogia: Jurnal Pendidikan dan Keislaman</i> , 1(3), 152-156.
Published by:	Yayasan Pendidikan Islam Bintang Nusantara

---

## INTRODUCTION

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ta'limning zamonaviy talablarga mos tashkil etilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, muloqotga kirishishga, jamoada ishlashga o'rgatish ta'lim jarayonining asosiy maqsadlariga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, hamkorlik pedagogikasi — ya'ni o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda bilim egallashi — samaradorligi isbotlangan ta'lim yondashuvlaridan biridir.

Hamkorlik pedagogikasi o'quv jarayonini faqat bilim berish bilan cheklab qo'ymaydi, balki o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, o'zaro hurmat, birdamlik, javobgarlik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda o'qituvchi bilim manbai emas, balki o'rganish jarayonini tashkil qiluvchi koordinator sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar esa passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, izlanuchi va ijodkor sifatida jarayonga jalb qilinadi.[1]

Mazkur maqolada ta'limda hamkorlik pedagogikasidan foydalanishning eng samarali usullari, ularning o'quvchilar rivojiga ta'siri hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar yoritib beriladi. Tadqiqotning dolzarbligini shundaki, hamkorlikka asoslangan o'qitish usullari ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quv jarayonini demokratlashtirish hamda o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

## RESEARCH METHOD

Mazkur tadqiqot sifat (kvalitativ) tavsifiy yondashuv asosida olib borildi hamda ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasini qo'llash samaradorligini tahlil qilishga qaratildi. Ushbu yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda hamkorlik faoliyatining mazmunini chuqur yoritish imkonini beradi.

Tadqiqot subyektlari sifatida hamkorlik asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida ishtirok etuvchi o'qituvchi va o'quvchilar tanlab olindi. Ma'lumotlar yig'ish jarayonida kuzatuv, suhbat (intervyu) va hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Kuzatuv orqali dars jarayonidagi hamkorlik faoliyati, xususan kichik guruhlarda ishlash, o'zaro fikr almashish va muammolarni birgalikda hal etish jarayonlari o'rganildi. Suhbat metodida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlik pedagogikasiga bo'lgan munosabati, tajribasi va fikrlari aniqlashtirildi. Hujjatlar tahlili esa o'quv materiallari, o'quvchilar ish natijalari va dars ishlanmalari asosida amalga oshirildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni ma'lumotlarni qisqartirish (reduksiya), tizimlashtirish (prezentatsiya) va xulosa chiqarish bosqichlari orqali olib borildi. Tahlil natijasida o'quvchilarning faollik darajasi, o'zaro hamkorlik ko'nikmalari hamda motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida manbalar va metodlar triangulyatsiyasi qo'llanildi.

Tadqiqotda hamkorlik pedagogikasining turli interfaol usullari, jumladan kichik guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum", "Jigsaw" va boshqa metodlarning amaliy qo'llanilishi o'rganildi. Natijada, hamkorlik asosidagi ta'limning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritib berildi.

## RESULTS AND DISCUSSION

Tadqiqot jarayonida hamkorlik pedagogikasining ta'limdagi samaradorligini oshirishga qaratilgan turli yondashuvlar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilar motivatsiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Kichik guruhlar bilan ishlash, o'zaro fikr almashish, hamkorlikda muammolarni hal qilish kabi metodlar o'quvchilarni faollashtiradi, ularda jamoaviy mas'uliyat va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi.[2]

Hamkorlik pedagogikasining amaliy jihatlaridan biri shuki, o'quvchilar bilimni o'qituvchidan tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni izlanish, muloqot, bahslashish jarayonida mustaqil ravishda egallaydi. Bu esa konstruktiv yondashuvning amalda qo'llanishi sifatida ta'lim jarayonini mazmunan boyitadi. O'quv jarayonida qo'llangan interfaol metodlar, xususan, "Aqliy hujum", "Jigsa", "Tarmoqlar metodi", "Qiyoslash jadvali" kabi usullar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirgani kuzatildi.

Shuningdek, hamkorlik tamoyillari ta'lim jarayoniga ijobiy psixologik muhit yaratish orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi. O'quvchilarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchining esa jarayonni boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etishi o'zaro hurmatga asoslangan sog'lom muhitni shakllantiradi. Bu esa o'quvchilarning mustaqilligini, ijodkorligini va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.[3]

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi tadqiqotchilaridan biri R. Slavin qayd etishicha, o'quvchilarga topshiriqlarni birgalikda bajarishni topshirishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Bunday jarayon samarali bo'lishi uchun o'quvchilar o'rtasida chinakam hamkorlik ruhi, bir-birining muvaffaqiyatidan chin dildan quvonish, o'zaro yordam ko'rsatishga tayyorlik va qulay ijtimoiy-psixologik muhit shakllanishi zarur. Ushbu texnologiyada har bir o'quvchining o'zlashtirgan bilim darajasi sinfdagi boshqa o'quvchilar natijalari bilan emas, balki uning avvalgi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Shunda o'quvchi o'zining har bir kichik yutug'i jamoa uchun muhim ekanini tushunib, yanada mas'uliyatli bo'lishga, ko'proq izlanishga va bilimlarni ongli ravishda egallashga intiladi.[4]

Hamkorlik pedagogikasida o'quvchi ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuvda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning teng huquqli ishtirokchilariga aylanadi, natijada o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim muhiti yuzaga keladi. Ular bir-biriga hamkor, sherik, safdosh, maslahatchi va birgalikda boshqaruvchi sifatida munosabatda bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida, balki ma'muriyat, ota-onalar, jamoatchilik va pedagoglar o'rtasida ham shakllantiriladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari aynan hamkorlik pedagogikasining talablari asosida yaratilgan bo'lib, ular an'anaviy o'qitishdan tubdan farqlanadi. An'anaviy darslarda o'qituvchi markaziy figura — o'quv jarayonining subyekti sifatida qaralsa, o'quvchi ko'proq passiv ob'ekt darajasida bo'ladi. Hamkorlikda o'qitish esa o'quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytirishga, uning shaxsiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va ta'lim jarayoniga faol qo'shilishiga imkon yaratadi. Bu yondashuv insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, yuqori ta'limiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.[5]

Hamkorlikda o'qitish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- o'quvchining o'rganish jarayoni mazmunan boyiydi;
- o'quvchilar bir-biridan o'zgacha kognitiv ma'lumotlarni o'zlashtiradi;
- mavzuga nisbatan ichki qiziqish shakllanadi;
- shaxsiy bilim va dunyoqarashni mustahkamlash imkoniyati ortadi;
- o'zaro axborot almashinuvi samaradorligi oshadi;
- hayotga tayyorlanishda zarur bo'lgan ko'nikmalar shakllanadi;

– turli madaniyat va ijtimoiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro tushunish rivojlanadi.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining markaziy jarayonlari — fikr almashish, suhbatlar, munozara, birgalikda tahlil qilish, amaliy mashqlar bajarish, tajriba va kuzatishlar o'tkazishdir. O'quv jarayoni turli tashkiliy shakllarda olib boriladi: "o'qituvchi–sinf", "o'qituvchi–kichik guruh", "o'qituvchi–o'quvchi", "o'quvchi–o'quvchi (juftlik ishlari)", "guruh–sinf" va boshqalar. Hamkorlikda o'qitish o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro yordamga asoslangan faoliyatini ta'minlaydi.

### **Hamkorlikda o'qitish metodlarining asosiy xususiyatlari**

- O'quvchilar umumiy topshiriq ustida birgalikda ishlaydi va bu guruhiiy faoliyat o'zlashtirishni yaxshilaydi.
- Guruhlar odatda 2–5 nafar o'quvchidan tashkil qilinadi.
- Guruhlar ijtimoiy qabul qilingan hamkorlik me'yorlari asosida faoliyat yuritadi.
- O'quvchilar bir-biriga yordam berish orqali mustaqil va faol bo'lishga intiladilar.
- Har bir o'quvchi o'z natijasi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

### **Noan'anaviy dars shakllari[6]**

Hamkorlik texnologiyalari asosida quyidagi turdagi darslar tashkil etilishi mumkin: matbuot anjumani darsi, "quvnoqlar va zukkolar" darsi, guruhlarda ishlash darsi, o'zaro o'qitish darsi, o'quvchilar olib boradigan dars, tanlov darsi, juftlik darsi, dialog darsi, aylanma mashqlar darsi va innovatsiyalar darsi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi — o'quv topshiriqlarini birga bajarish jarayonida birgalikda o'rganishni tashkil etishdir. Ushbu metod o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, o'z qadr-qimmatini his qilish, o'z kuchiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mas'uliyatni sezish kabi sifatlarni rivojlantiradi. Har bir o'quvchining muvaffaqiyati butun guruh yutuqlariga ta'sir qilishini tushungan holda, ular muntazam ravishda faol ishlashga intiladilar.

Kichik guruhlarda hamkorlik qilish metodida esa 4 nafardan iborat guruhlar tashkil etiladi. O'qituvchi mavzuni tushuntirgach, topshiriqlarni to'rt qismga ajratib beradi. Har bir o'quvchi o'z qismi uchun mas'ul bo'lib, keyin uni guruhdoshlariga tushuntiradi va yakunda umumiy xulosa ishlab chiqiladi.[7]

### **CONCLUSION**

Hamkorlikda o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillar qatoriga o'quvchilarning mavzuga ijodiy yondashuvi, axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, amaliy mashqlarga vaqt ajratish, bir-biriga ko'maklashish va boshqalar kiradi.

Pedagogika va psixologiya fanida hamkorlikning 8 shakli mavjud: faoliyatga kirish, o'qituvchi bilan birgalikda mustaqil harakatlar, boshlang'ich harakatlarni o'qituvchi tomonidan tashkil etish, taqlid qilish, yordamchi harakatlar, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini namoyon etish, o'zini o'zi uyushtirish.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'quvchilarning birgalikda faoliyat yuritish mexanizmini yaratishni maqsad qiladi. Hamkorlikning natijasi — yangi g'oyalar paydo bo'lishi, o'zaro sheriklikning mustahkamlanishi, ta'lim jarayonida faol pozitsiyaning shakllanishidir. Birgalikdagi faoliyat dastlab o'qituvchining yordamidan boshlanib, asta-sekin o'quvchining mustaqil boshqaradigan aqliy va amaliy harakatiga aylanadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sheriklik, hamkorlik va o'zaro hurmatga asoslangan munosabat vujudga keladi.

### **REFERENCES**

---

- Slavin, R. E. **Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice**. Boston: Allyn & Bacon, 1995.
- Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. **Cooperation in the Classroom**. Edina, MN: Interaction Book Company, 1998.
- O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. — Toshkent: Adolat nashriyoti, 2021.
- To'xtasinov, K. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
- Xoliqov, A., Yo'ldoshev, J. **Pedagogika nazariyasi va tarixi**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
- Nishonova, Z. **Interfaol metodlar: nazariya va amaliyot**. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
- Qodirova, F., & Mamarajabov, B. **Zamonaviy ta'lim texnologiyalari**. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.

---

**Copyright Holder :**

© Olimova Dono Shakirovna et al (2026).

**First Publication Right :**

© Edulogia: Jurnal Pendidikan dan Keislaman

**This article is under:**

